



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

ASSERTIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK, DIDAKTIK JIHATLARI.

Rayimova Dilfuza Abdinabiyevna

Shahrisabz davlat pedagogika Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lif nazariya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini faol yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, talabalarda mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlar. Maqolada darsning zamonaviy usullari va texnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.Zamonaviy usullarning mohiyati, darslarda turli usullarni qo'llanilishining ahamiyatli tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Dars texnologiyalari ,usullari ,ta'lif, o'qitish,o'quv jarayoni

Oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini faol yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, talabalarda mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion salohiyati va kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, ta'lif jarayonida pedagogik hamkorlik tamoyillarini modellashtirish, o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishda ta'lif texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilmoqda.

Faol yondashuv asosida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda

Pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalarini faol yondashuvi asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida psixologik ,pedagogik, didaktik jihatlari shakillantirish dolzarb masalaladan biridir.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Zamonaviy jamiyat talaba va o'ziga nisbatan shaxsiy va insonparvarlik pozitsiyasini egallashga qodir, talaba shaxsini rivojlantirishni maqsad qilgan, ijodkorlik qobiliyatiga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'zini o'zi tarbiyalashga intiladigan o'quvchilarga muhtoj. Shuning uchun o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasini oshirish muammosi dolzarbdir

Kasbiy kompetensiya bu o'zining pedagogik faoliyatini yetarlicha yuqori darajada amalga oshiradigan, talabalarni o'qitish va tarbiyalashda barqaror yuqori natijalarga erishadigan, paydo bo'lган muammolarni mustaqil ravishda hal qiladigan va o'z faoliyati natijalarini baholaydigan o'qituvchidir

Faol yondashuv asosidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish – bu talabalarni o'quv va kognitiv kasbiy faoliyatning murakkab turlariga jalb qilish darjasи bo'lib, bunda asosiy maqsad, vazifalar, maxsus fanlar bo'yicha mustaqil bilimlarning texnologiyasini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash hamda uzviylik va ketma-ketlikni nazarda tutuvchi o'qituvchi va talabaning pedagogik o'zaro hamkorligi natijasida mustaqil ish turlarini, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini-o'zi baholashni o'zlashtirishdir. O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari malaka oshirish kurslarida, shu jumladan, masofaviy rejimda o'qitish va boshqalar; sinfda ishslash, ijodiy guruhlar, o'qituvchilarning mahorat darslari, master-klasslar, fan dekadalari, o'tkazilgan testlar tahlili, turli darajadagi tadbirlar; o'qituvchilar kengashlari, seminarlar, konferensiyalarda faol ishtirop etish; turli tanlovlarda ishtirop etish; ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirop etish, o'z nashrlarini yaratish; tajribani umumlashtirish va tarqatish; o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish; ijodiy hisobot; zamonaviy usullar, shakllar, turlar, o'qitish vositalari va yangi texnologiyalardan foydalanish; o'qituvchining faoliyatini tahlil qilish yoki o'z darslarini kuzatish; o'z-o'zini tarbiyalash (yuqorida aytilganlarning barchasi bu o'z-o'zini tarbiyalashni o'z ichiga oladi) kabi faoliyat turlaridan iborat.

Kasbiy kompetensiya sohaga tegishli shaxsning kasbiy faoliyati. Kasbiy kompetensiyaning mazmuni lavozimning funksiyalari, hal qilinishi kerak bo'lган kasbiy vazifalarning tabiatи va mazmuni bilan belgilanadi. Mutaxassisning kasbiy malakasi uning kasbiy muvaffaqiyatini, o'zini o'zi anglash darajasini ta'minlaydi va



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

kasbiy ta'lim darajasiga, kasbiy muhim shaxsiy fazilatlarga va kasbiy tajribaga bog'liq. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentsiyasining aniq ta'rifini joriy etish imkoniyati ta'lim tizimiga kirib kelayotgan zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uning mazmuni, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan va kreativ paradigmalar sohasida ishlaydigan o'qituvchi kreativ yondashuv asosidagi o'qitishning yetakchisi ishlaydi va quyidagilarni yaratadi: mustaqil va mazmunli o'rganish uchun qulay sharoitlar; talabalarning qiziqishi va ijodiy bilim motivlarini, ularning guruhli o'quv va ijodiy ishlarini faollashtiradi va rag'batlantiradi; undagi an'analarning namoyon bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi; talabalarni ijodiy va innovatsion xarakterdagi o'quv materiallari bilan taminlaydi.

Talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo'lishining umumiy sharhiga to'xtalib o'taylik. Birinchi navbatda ularning "yangilik hissi" mezoniga murojaat qilinadi. Bu holat o'z navbatida talabalarning ham ma'naviy, ham jismoniy, ham ijtimoiy-psixologik jihatdan yangilikka intilishini ta'minlaydiki, bunda yoshlar har qanday yangi narsani kashf etishga qaratilgan izlanishlarini hamda o'z faoliyatlarida sinab ko'rishlariga qiziqishlaridan darak beradi. Aslida har qanday yangilik shaxs hayotida muhim o'rin egallaydi va uning yaxlit shaxs sifatidagi yo'nalishini ham belgilaydi. Demak, talabalarda asertiv pozitsiyani rivojlantirish bu pedagoglarning, umuman jamiyatning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Darhaqiqat, yoshlarimiz uchun o'z manfaat va qiziqishlarini yangilikka intilish bilan boyitish orqali ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashimiz muhim. Chunki, jamiyatdagi ijtimoiy ma'naviy tarbiya bu talabalar psixologik ongi, shaxsiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi kuchli mакtabdir. Bunda yoshlar ongida yangilikka intilish tushunchasi, rivojlanayotgan mamlakatimizda o'z bilimlarini yanada chuqurroq anglash hissi, butun dunyoda o'z vatani bayrog'ini ko'tarish istagi, vatanparvalik hissini uyg'otadi.

Talabalarning "tanqidiylik" mezoni bo'yicha turli xil vaziyatlarni yaxshi anglashga, insonlar orasidagi murakkab vaziyatlarni to'g'ri baholashga, o'z-o'zini va atrofdagilarni xolisona baholash shuningdek o'rni kelganda o'zgalar fikrini rad eta olish, murakkab vaziyatlarni muloqot ishtirokchilarini ishtirokiga qarab tanqidiy



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

tahlil qila olish qobiliyatini o'stirishga imkoniyatlari borligini ko'rsatdi. Shaxslararo vaziyatlarni yaxshi anglashga, insonlar orasidagi murakkab vaziyatlarni tahlil eta olishga, ularning rivojlanishini mantiqan tushunishga, murakkab vaziyatlarni muloqot ishtirokchilari faolligiga qarab baholash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular muomaladagi real vaziyatdan kelib chiqib, uning nima bilan yakunlashini baholay olishlari, ba'zan kutilmagan, noodatiy holatlarda, xatti-harakatlarni prognoz qilishda yanglishishlari mumkinligi, qo'ygan maqsadga erishishda o'z rejalarini puxta ishlab chiqishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy manbalarni o'rganishda bayon etilgan tahlilarda, talabalarning faoliyati davomida namoyon bo'ladigan ijodiylik motivatsiyasining o'ziga xos o'rinn tutishini aytib o'tish mumkin.

Talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo'lishining o'ziga xoslik tarzda ifodanalayotgan "ijodkorlikka yo'nalganlik" qobiliyatidir. O'z-o'zini baholash shaxslararo munosabat xarakteriga ko'ra, bir-biri bilan suhbatlashadigan insonlarni tez va yaxshi tushunishga moyilliklari, ularda estetik va axloqiy tarbiyaning sifatlari shakllanganligini ko'rshimiz mumkin.

O'ylaymizki, ushbu qobiliyat talabalar uchun nafaqat insonlar bilan munosabat, balki fan doirasida o'quvchilarining bildiradigan fikr-mulohaza va munosabatlariga qarab ham ularning shaxsiga xos ta'riflar bera olishlaridan dalolat beradi.

Shunday qilib, talabalarda assertive rozitsiyalarini rivojlantirishda ta'sir etuvchi ijodiy faollik motivatsiyasi va dunyoqarashi ularning amaldagi ijtimoiy xulqiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarning o'rmini isbotladi va ularda ijodiy faoliyat motivatsiyasi mavjudligi belgilaydi. Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasining shakllanishi bizningcha, kelajakda davlatimiz taraqqiyotini yanada yuksak pog'onalarga eltuvchi ruhan kuchli, ma'naviy barqaror bo'lgan yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Talabalarda assertiv pozitsiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Shaxs tafakkurining rivojlanishi masalasi Sharq allomalarining pedagogik psixologik qarashlarida "barkamol inson tarbiyasi" g'oyasi shaxsning sog'lom fikr yuritish qobiliyati, ezgu fikrlash, o'z axloqini tahlil qilish, ijtimoiy zukkolik sifatlari bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishi keltirib o'tilgan.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

2. Assertiv pozitsiyalarni rivojlantirishda shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilishiga, idrok qilishga, shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fikrlash turi ekanligi aniqydi.
3. Shaxsda assertiv pozitsiyalarni rivojlanishi atrof-muhitga nisbatan emotsiyal munosabatini barqaror bo‘lishi, o‘z fikrlarini boshqarish ko‘nikmasini, hayotga pozitiv qarashlarni shakllanishiga olib kelishi aniqlandi, tafakkur bilish jarayonlarining optimallashtirilishi va aqlning ijobiy fazilatlari moslashuvchanlik, mustaqillik, tanqidiy fikr qobiliyatni uchun ichki sharoitlarni yaratishi aniqlandi.
4. Talabalarda fikrlashdagi ijobiy va salbiy sifatlarini shakllanganlik darajalari va psixologik omillari, mezonlari ko‘lamini aniqlash va ularning har birini alohida tahlil qilish uchun tegishli metodlarni tanlash va ishlab chiqishga to‘g‘ri kelishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podlasy I.P. “Pedagogika: 100 savol 100 javob: darslik. Universitetlar uchun darslik: Vlados-press, 2004
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Mirziyoyev Sh.M.”Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”.Toshkent.”O’zbekiston”.2017.
4. Zimnyaya I.A.-M.: Педагогическая психология"Logos",2002.
5. Pedagogika. Munavvar tahriri ostida,-T:”O’qituvchi”,1996.
6. G’ulomov S.S. Ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yo’nalishlari.-T.:2003.
7. @huquqiyaxborot
8. Raimova, Dilfuza Abdinabiyeva. "TIL-ALOQA VOSITASI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.16 (2023): 128-130.
9. Rayimova, Dilfuza Abdinabiyeva. "XX ASR O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MORFEMIKAGA OID QARASHLAR." *RESEARCH AND EDUCATION* 2.10 (2023): 276-280.
10. Rayimova, Dilfuza Abdinabiyeva” TALABALARDA XALQARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TARBIYANING



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

MUHIM XUSUSIYATLARI" 2024 yil, dekabr Pedagogik mahorat Ilmiy – nazariy va metodik jurnal 12-son

11.Mansurovna, Ochilova Fayyoza. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI." TADQIQOTLAR. UZ 31.3 (2024): 189-194.

12.Ochilova, Fayyoza. "TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI." YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).

13.Ochilova, Fayyoza Mansurovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 297-306.

14.Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).